

AGROEKOTIZMLARDAN ZAHIRA YERLARDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK IQTISODIY JIHATLARI

Parpiyeva Mohichehra

NamDU, Ekologiya va atrof muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishi talabasi.

Abdunabiyeva Halima

NamDU, Ekologiya va atrof muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya; Ushbu maqolada agroekotizmlarning rivojlanishida zahira yerlardan foydalanishning imkoniyatlari tahlil qilingan. Xususan, zovurlarda o'rdak boqishni ekologik va iqtisodiy jihatdan foydali agro faoliyat turi sifatida ko'rib chiqiladi. O'rdaklar yordamida suv muhitining tozalanishi, tabiiy ozuqalar hisobiga ozuqa harajatining kamayishi va shu kabi ekologik afzalliklar yoritilgan. Shuningdek, kichik biznes yurituvchilar uchun daromad manbai sifatida iqtisodiy samaradorlik haqida batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: agroekotizm, zovur, o'rdak boqish, ekologik samaradorlik, iqtisodiy foyda, zahira yerlar, tabiiy resurslar, kichik biznes.

Kirish.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni birlashtirgan yondashuvlar tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Agroekotizmlar – ya'ni tabiat bilan uyg'un faoliyat yurituvchi qishloq xo'jaligi tizimlari – nafaqat mahsuldorlikni oshiradi, balki atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradi. Shu nuqtayi nazardan, foydalanilmayotgan yoki kam foydalanilayotgan zahira yerlardan oqilona foydalanish orqali yangi daromad manbalarini yaratish mumkin.

Zovurlar, ya'ni sug'orish yoki drenaj tizimlaridagi suv yo'llari, odatda foydalanilmaydigan, ammo salohiyati yuqori bo'lgan resurs hisoblanadi. Ular o'zida tabiiy suv muhitini saqlaydi va suv jonzoqlari uchun yashash manzili bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada zovurlarda o'rdak boqish orqali ekologik va iqtisodiy foyda olish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism

Zovurlarda o'rdak boqish quyidagi ekologik foydalarni beradi:

Biologik tozalash: O'rdaklar suvda yashovchi hasharotlar, mollyuskalar va o'simliklar bilan oziqlanadi. Bu esa suv havzasida ekologik muvozanatni saqlashga yordam beradi.

Integratsiyalashgan guruch–o'rdak yetishtirish tizimi Xitoyning an'anaviy qishloq xo'jaligi usuliga asoslangan bo'lib, unda o'rdaklar sholi dalalarida boqiladi. Bu tizimda guruch va o'rdaklar o'zaro foydali munosabatda bo'ladi. O'rdaklar daladagi zararkunanda

hasharotlar, begona o'tlar va ayrim kasalliklarni kamaytirishga yordam beradi, natijada kimyoviy pestitsidlarga ehtiyoj kamayadi. Shu bilan birga, tizim foydali hasharotlar populyatsiyasiga ham ta'sir qilishi mumkin. Tadqiqot natijalari bu usul ekologik jihatdan samarali ekanini ko'rsatadi, ammo uning ta'sir mexanizmlarini yanada chuqur o'rganish zarurligi ta'kidlanadi.[1]

O'rdak najasi yuqori azotli tarkibga ega bo'lib, atrofda yerlar uchun tabiiy o'g'it vazifasini bajaradi. Kimyoviy ozuqalarga bo'lgan ehtiyojning kamayishi, O'rdaklar tabiiy muhitda oziqlanganligi sababli atrof-muhitga zarar yetkazuvchi sun'iy ozuqalardan foydalanish kamayadi shu bilan birga zararkunandalar populyatsiyasini xam kamayishiga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi xududlari atrofida zovur va suvlarda parazitlar va kasalliklarning keltirib chiqaruvchi omillarni kamayishi uchun katta xizmat qiladi. O'rdaklar suvdagi chivin lichinkalari, mollyuskalar va mayda organizmlar bilan oziqlanadi. Natijada parazitlar tashuvchilari kamayadi, suv muhitida biologik muvozanat saqlanadi hamda kasalliklar tarqalish xavfi sezilarli darajada pasayadi.

Iqtisodiy jihatlari xam juda barqaror xisoblanadi zovurlarda o'rdak boqish kichik investitsiya talab qiladi, chunki ular uchun maxsus inshoot qurish shart emas, zovurlar tabiiy yashash muhiti bo'lib xizmat qiladi. O'rdaklar tez o'sadi va 2–3 oyda so'yishga tayyor bo'ladi. Go'shti, tuxumi hamda patlariga bozorda talab yuqori bo'lib, qo'shimcha barqaror daromad manbai yaratadi. Zovurlarda o'rdak boqish qishloq xo'jaligida kam xarajatli va samarali faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Bu usul kichik investitsiya bilan boshlanishi mumkin bo'lib, ayniqsa suv zovurlari mavjud hududlarda iqtisodiy va ekologik jihatdan foydali natija beradi. O'rdaklar suvli muhitda yaxshi rivojlanadi, shu sababli ularni boqish uchun alohida katta inshootlar qurish talab etilmaydi. Zovurlar o'rdaklar uchun tabiiy yashash muhiti bo'lib xizmat qiladi va bu parvarish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi.[2]

Oddiy hisob-kitoblarga ko'ra, 100 bosh o'rdak boqish uchun o'rtacha 6–8 million so'm atrofida boshlang'ich xarajat talab qilinadi. Bu xarajatlarga asosan jo'ja sotib olish, yem-xashak, veterinariya xizmatlari va parvarish bilan bog'liq boshqa xarajalar kiradi. O'rdaklar tez o'sadigan parrandalar qatoriga kiradi va odatda 2–3 oy ichida so'yishga tayyor holatga keladi. Shu vaqt ichida har bir o'rdakning o'rtacha vazni 2,2 kilogramm atrofida bo'lishi mumkin. Agar 100 bosh o'rdak boqilsa, jami olinadigan go'sht miqdori taxminan 220 kilogrammni tashkil etadi.



Bozorda o‘rdak go‘shining o‘rtacha narxi 1 kilogramm uchun taxminan 45 000 so‘m deb hisoblasak, 220 kilogramm go‘sh sotilganda umumiy tushum 9 900 000 so‘mni tashkil qiladi. Agar boshlang‘ich xarajatlar 6–8 million so‘m atrofida bo‘lsa, bir aylanish natijasida taxminan 1,5–3 million so‘m sof foyda olish mumkin. O‘rdaklar qisqa muddatda yetilib ulg‘aygani sababli yil davomida kamida 3 marta aylanma tashkil qilish mumkin. Shunday qilib, yil davomida olinadigan umumiy daromad o‘rtacha 4,5–9 million so‘m atrofida bo‘lishi mumkin.[3]

Bundan tashqari, zovurlarda o‘rdak boqish faqat iqtisodiy daromad bilan cheklanib qolmaydi, balki qo‘shimcha ekologik va xo‘jalik foydalarini ham beradi. Ma’lumki, zovurlar vaqt o‘tishi bilan suv o‘simliklari, suv o‘tlarining ko‘payishi va turli organik qoldiqlar to‘planishi natijasida ifloslanishi mumkin. Bunday holatda zovurlarni muntazam ravishda tozalash uchun qo‘shimcha mablag‘ va mehnat sarflashga to‘g‘ri keladi. O‘rdaklar esa suvdagi o‘simliklar, mayda organizmlar va turli lichinkalar bilan oziqlanadi. Natijada zovurlarda ortiqcha o‘simliklarning to‘planishi kamayadi va suv muhitining tabiiy tozaligi qisman saqlanib turadi.

Shu sababli o‘rdak boqish orqali zovurlarni tozalash bilan bog‘liq xarajatlar ham ma’lum darajada kamayadi. Bu esa suv xo‘jaligi tizimlarini saqlash va parvarish qilish uchun ajratiladigan mablag‘ni tejash imkonini beradi. Bundan tashqari, o‘rdaklar suv muhitidagi ayrim zararli hasharotlar va lichinkalarni ham yo‘q qiladi, bu esa sanitariya holatini yaxshilashga yordam beradi.

Umuman olganda, zovurlarda o‘rdak boqish iqtisodiy jihatdan foydali, ekologik jihatdan esa barqaror faoliyat turi hisoblanadi. U qishloq hududlarida qo‘shimcha daromad manbai yaratish bilan birga suv zovurlarining ekologik holatini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Shu

sababli bu usulni kichik fermer xo'jaliklari va aholining tomorqa xo'jaliklarida keng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

O'rdak go'ngi qishloq xo'jaligida samarali organik o'g'itlardan biri hisoblanadi. Uning tarkibida o'simliklar uchun zarur bo'lgan azot, fosfor va boshqa oziqa elementlari mavjud. Azot miqdori tovuq go'ngiga nisbatan biroz kamroq bo'lsa-da, u tuproqda barqarorroq saqlanadi va o'simliklar tomonidan sekin o'zlashtiriladi. Fosfor miqdori esa tuproq unumdorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'rdak go'ngi tuproqning fizik xususiyatlarini yaxshilab, uning strukturasini mustahkamlaydi va organik moddalarga boyitadi. Natijada tuproqning suvni ushlab turish qobiliyati ham ortadi. Shuningdek, u ekologik toza o'g'it bo'lib, kimyoviy o'g'itlardan foydalanishni kamaytirishga yordam beradi va barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Zahira yerlardan, xususan zovurlardan foydalanish orqali agroekotizm doirasida ekologik va iqtisodiy maqsadlarga erishish mumkin. O'rdak boqish amaliyoti oddiy va katta kapital talab qilmaydi, shu bilan birga ekotizimni saqlashga xizmat qiladi. Bu usul mahalliy tadbirkorlar uchun yangi daromad manbai yaratadi va ekologik muvozanatni tiklashga yordam beradi. Shu bois, mazkur tajribani ommalashtirish dolzarb vazifa sifatida qaralishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A combination of rice cultivar mixed-cropping and duck co-culture suppressed weeds and pests in paddy fields. Eijuan Li, Ronghua Li, Jiaen Zhang, Shiwei Liu, Zewen Hei, Shuqing Qiu. Basic and Applied Ecology, Volume 40, November 2019, Pages 67-77. <https://doi.org/10.1016/j.baae.2019.09.003>
2. Hossain, Shaikh Tanveer; Sugimoto, Hideki; Ahmed, Gazi Jashim Uddin; Islam, Md. Rafiqul. Effect of Integrated Rice-Duck Farming on Rice Yield, Farm Productivity, and Rice-Provisioning Ability of Farmers. <https://doi.org/10.22004/ag.econ.165782>.
3. A.Ergashev. Agroekologiya. Toshkent 2006 Yil. 534 bet.